

## O'T TOSH KASALLIGI

Mamadjonova Madinaxon Alisherjon qizi

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Marg'ilon Jamoat Salomatligi Texnikumi

### Annotatsiya:

O't pufagi haqida ma'lumot. U — ovqat hazm qilish tizimining muhim a'zolaridan biri bo'lib, jigar chiqargan o't suyuqligini to'plash va quyultirib berish vazifasini bajaradi. Ovqat iste'mol qilganda o't qopidan ajralgan suyuqlik o'n ikki barmoqli ichakka tomadi va ovqatdagi yog'larni parchalab, taom hazmida ishtirok etuvchi fermentlarni faollashtiradi. Organizmda taxminan 50-80 ml. o't va safro suyuqligi bor. Agar ovqat hazm qilishda muammo bo'lmasa, o't pufagi ham faol ishlaydi. Aks holda esa unda safro ya'ni zardob to'planib, tosh yig'ilishi hamda boshqa kasalliklar kelib chiqishi mumkin.

**Kalit so'zlar:**O't pufagi,xoletsistit,to'sh,o't shillig'i,safro suyuqligi,o't haydalishi,spazmolitiklar, parhez.

O't pufagi shamollashi – xoletsistit. O't pufagi yallig'lanishi ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining keng tarqalgan turlaridandir. Aksariyat hollarda vaqtida ovqatlanmaslik yoki haddan ziyod taom iste'mol qilish natijasida o't hosil bo'lishi va o't haydalinshining buzilishi va buning natijasida tosh yig'ilishi, surunkali qabziyat, turli infeksiyalar sabab yuzaga keladi. Yog'li taomni xushlovchilarda esa xoletsistitga chalinish ehtimoli birmuncha yuqori. Xoletsistitda safro to'planib borib, o'ng biqin – qovurg'a ostida simillagan og'riq kuzatiladi. Shuningdek, safro qusish holatlari ham bo'lishi mumkin.O't dimlanishi. O't suyuqligi turib qolishiga o't qopining qisqaruvchanlik funksiyasi izdan chiqishi, bukilishi ya'ni o't yo'llaridagi nuqsonlar – o'tning «bo'yni» qiyshayishi, chandiqlar, ichki a'zolarining o'z o'rnidan pastga tushishi, qabziyat, kamharakatlilik, kam ovqat iste'mol qilish kabilar sabab bo'ladi.Ovqat hazm bo'lishi buzilganida jigar ajratayotgan suyuqlik o't pufakda to'planib, dimlanadi. Shuningdek, uyqu oldidan to'yib ovqatlanish hamda harakatsizlik sababli taom hazm bo'lmay, o't suyuqligi dimlanishiga olib keladi. Bu holatda og'iz taxirlashishi yoki jig'ildon qaynashi kuzatiladi. Ushbu kasallik belgilar keyinchalik o't qopida tosh hosil bo'lishiga olib keladi. Ushbu dimlanish sabablarini bartaraf etishga harakat qilsangiz, o't dimlanmaydi. O't dimlanishi qon bosimiga ta'sir etmaydi.O't pufagidagi tosh. O't pufagi aslida ham bukchaygan bo'lib turadi. Agar ortikcha bukchaysa, bu safroni qurib kolishiga olib keladi, bu esa safro ichidagi tuzlarni bir biriga yopishtiradi va qum hosil bo'ladi,



kumlar esa birlashib toshga aylanishadi. Agar toshga kalsiy moddasi qo‘shilsa bu toshni eritib bo‘lmaydi va operativ yo‘l bilan o‘t qopi bilan birga olib tashlash kerak bo‘ladi. O‘tdagi toshlar bir necha millimetrdan tortib, bir necha santimetr gacha bo‘ladi. 1-2 mm kattalikdagi toshchalar o‘t oqimi bilan chiqib keta oladi. Undan kattalari turli noxushliklarga sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. O‘t pufagidagi tosh UTT hamda rentgen vositasida aniqlanadi. O‘t pufakdagi suyuqlik bir necha tarkibdan iborat bo‘lgani uchun. a’zoda yuzaga keluvchi toshlar ham tarkib jihatidan bir-biridan farqlanadi. Masalan, xolesterindan, kalsiy tuz cho‘kmasidan hamda bilirubin pigmentidan hosil bo‘luvchi va aralash toshlar bo‘lishi mumkin.. Biroq ko‘p hollarda toshlar tarkibi aralash bo‘ladi va ularning o‘lchami 0,1 mm.dan 5 sm.gacha bo‘lishi mumkin. Ba’zilarida tosh qo‘zg‘almagunicha hech qanday bezovtalik sezilmaydi. Hatto og‘riq ham bo‘lmay, ahyon-ahyonda ko‘ngil aynishi, jig‘ildon qaynashi yoki og‘iz taxirlashishi mumkin. Tosh o‘t yo‘liga tomon harakatlanib, uni berkitib qo‘yganida o‘ng qovurg‘a ostida sanchiqli og‘riq yuzaga keladi. So‘ng og‘riq – qorin, o‘ng kurak, o‘ng yelka, o‘mrov va kuraklararo sohaga tarqalib, bezovtalik kuchayadi. O‘t pufagi yallig‘langanda o‘t suyuqligining kimyoviy tarkibi o‘zgaradi. Natijada bilirubin, xolesterin, kalsiy moddalari cho‘kmalari ko‘payadi va aralash tarkibli toshlar paydo bo‘la boshlaydi. Shuningdek, moddalar almashinuvining izdan chiqishi, yuqumli xastaliklar va o‘t suyuqligi turib qolishi bilan bog‘liq omillar natijasida har qanday yoshda ham paydo bo‘lishi mumkin. Asosan, jigar-o‘t yo‘llarida yoki o‘t pufagining o‘zida tosh hosil bo‘ladi. Shuningdek, o‘t toshi kasalligi, asosan, xolesterin ortishi bilan bog‘liq ateroskleroz, qandli diabet, semizlik kabi xastaliklarda kechishi aniqlangan. O‘t suyuqligida xolesterin ko‘payishi, tosh paydo bo‘lishi ko‘pincha irsiyatga borib taqaladi. Qolaversa, noto‘g‘ri ovqatlanish, homiladorlikdagi gormonal o‘zgarishlar ham o‘t toshlariga sabab bo‘lishi mumkin. Davolash – spazmolitiklar, parxez, ko‘p piyoda yurish kerak. Aniqini bilish uchun vrach mutahassisga uchrab, tahlil qildirishdir. Kasallik nega ayollarda ko‘proq uchraydi? Ayol organizmida homiladorlik sabab almashinuv jarayonlari o‘zgarib turadi. Shu sabab ham o‘t pufagi kasallanishi yoki safro turib qolishi mumkin. Erkaklarda esa noto‘g‘ri ovqatlanish va zararli mahsulotlar ta’sirida o‘t pufagi kasallanadi. Tezkor tekshiruv. O‘t pufagi faoliyatini baholashda dastlab shikoyatlaringiz o‘rganiladi. Buning uchun gastroenterolog shifokor ko‘rigiga borasiz. Shifoxonada ultratovush tekshiruvi o‘tkazilib, zarurat bo‘lsa, kompyuter tomografiyasi va kerakli tahlil xulosalari tayyorlanadi. Shunga ko‘ra, o‘t pufagidagi o‘zgarishlar, xususan, tosh bo‘lsa, uning katta-kichikligi aniqlanib, zarur muolaja tayinlanadi. Tosh o‘lchami kichik, deb topilsa, uni eritib



tushiruvchi dori preparatlari hamda parhez buyuriladi. Og'riq xurujlari hafta davomida ikki-uch bor qaytalansa, jarrohlik amaliyoti yordamida o't pufak tosh bilan birga olib tashlanadi. Negaki, mazkur a'zo olib tashlanmasa, oshqozonosti bezining yallig'lanishi – pankreatitga chalinish mumkin. O't pufagisiz ham yashash mumkin! O't pufagida tosh yig'ilib, o't yo'llariga tiqilib qolsa, jarrohlik yo'li bilan a'zoning o'zi ham olib tashlanadi. Chunki tosh olinib, o't pufagi qoldirilsa, o'sha yerga yana tosh yig'ilishi ehtimoli mavjud.[5] Xavotirlanmang, o't pufagi yo'qligini organizm o'z-o'zini qayta tiklash funksiyasi orqali bilintirmaydi. Biroq o't pufagingiz olib tashlansa, olti oy mobaynida qat'iy parhezga rioya etib, undan so'ng ham parhezbop mahsulotlarni oz-ozdan, tez-tez tanovvul qilishga odatlanishingiz kerak. Qolaversa, to'yib ovqatlanmaslik, uyqu oldidan taomlanish ham tavsiya etilmaydi. "Yuvdirish" muolajasi. O't pufakda turli cho'kmalar hosil bo'lib, bezovtalik kuchayishi, yeyilgan ovqat hazm bo'lmay, oshqozonda turib qolishi shuningdek, ushbu a'zoda lyambliya mavjud bo'lishi yuvdirish muolajasini talab qiladi. Mazkur amaliyot shifokor ko'rsatmasi bilan bajarilib, o't pufagida tosh bo'lmagan taqdirdagina qilinishi mumkin. Bir martalik muolajadan so'ng uni takrorlash shart emas. Profilaktika uchun makkajo'xori popugi, na'matak hamda safro haydovchi damlamalardan ichib turish mumkin. "Qurtlab" ketsa. Ko'pincha, terining oqarib qolishi, tez-tez qichinish, shamollaganda qorin sohasidagi simillagan og'riq yoki soch to'kilishi kabi holatlarda tahlil o'tkazilsa, organizmda parazitlar borligi aniqlanishi mumkin. O't pufagida, asosan, lyambliya parazitlari uchraydi. Davolash uchun kerakli tibbiy tekshiruv o'tkazilib, shunga ko'ra, muolaja (o't pufagini yuvish, parazitlarga qarshi zarur preparatlar ichish)lar buyuriladi. Xastalikni davolashga yetkazgandan ko'ra oldini olgan afzal. Hech birimiz o't pufagi kasalliklaridan himoyalangan emasmiz. Shunday ekan, avvalo, to'g'ri ovqatlanish tartibiga amal qilishni o'rganaylik. Masalan, mayonez, margarin, sariyog', yog'li sut mahsulotlari, yog'li go'sht, bug'doy unidan tayyorlangan non kabilar taomnomangizda imkon qadar kamroq bo'lgani ma'qul. Shuningdek, ko'p qovurilgan, dudlangan, konservalangan yeguliklar, gazli ichimliklar va achchiq qahvaning ham me'yorini unutmang. Jismoniy mashqlarning ham ahamiyati katta. Bir kunda 15-20 daqiqalik jismoniy mashqlar bilan shug'ullaning. Kuni bilan o'tirib ishlaydiganlardan bo'lsangiz, har bir-ikki soat oralig'ida oyoq chigilini yozib, yengil mashqlarni bajarib turing. Sog'lom ovqatlanishga rioya qiling! O't pufagi kasalliklari hamda uning oldini olish uchun quyidagi mahsulotlarni ko'proq iste'mol qiling: sarxil meva va sabzavotlar, barra ko'katlar, yog'siz sut-qatiq, tvorog, yirik tortilgan undan tayyorlangan non va shirinliklar, turli yormalar, baliq va dengiz



mahsulotlari, yog'siz go'sht. Agar o't pufagi parhezida bo'lsangiz, luqmani oz-ozdan va yaxshilab chaynab yeyishga harakat qiling.[4] To'yib ovqatlanishdan saqlaning. Shifokor tavsiyasiga ko'ra, o't-safro haydovchi damlamalardan ichib tursangiz ham bo'ladi. Yorilib ketishi mumkin! Ayrim hollarda o'ng qovurg'a ostida paydo bo'lgan og'riqni yengillashtiraman, deb issiq grelka qo'yib yoki badanni isituvchi surtmalar surtib, davolamoqchi bo'lamiz. Ammo bu mutlaqo noto'g'ri! Shuningdek, toshni maydalab tushiradigan damlamalaru o't pufagini tozalaydigan choylarga ham ishonmang. Og'riq xuruj qilganida og'riqsizlantiruvchi dorilar kor qilmaydi. Xullas, o'zibilarmonlik qilib, "davolanish" o't pufagining yorilishiga olib kelishi mumkin. Yaxshisi, o'z vaqtida shifokorga uchrab, kerakli muolajalarni oling. Kartoshka sharbati, xom tuxum. O't pufagidagi muammo sabab jig'ildon qaynashi bezovta qilaversa, kimdir iste'mol sodasi aralashtirilgan suv, kartoshka sharbatini ichish yoki xom tuxum yutishni maslahat beradi. Bu usullar vaqtinchalik ahvolingizni yengillashtirishi mumkin. Biroq kasallikni davolamaydi! Qolaversa, bilib-bilmay qo'llangan tadbir organizmning boshqa a'zolariga ziyon yetkazishi ham mumkin. Davolash usulini o'zingiz tanlang. Tibbiyotda o't toshi kasalligini davolashning bir necha usullari mavjud: medikamentoz litoliz — dori-preparatlar yordamida eritish; masofadan yuboriladigan ultratovushli litotripsiya; lazer yordamida toshni maydalab tushirish; kimyoviy litoliz usuli; laparoskopik yoki endoskopik usulda o't qopini olib tashlash; sohani kesib, o'tni olib tashlashga asoslangan ochiq jarrohlik usuli.[3] O't toshini davolashda kasallikning ilk bosqichida, ya'ni o't shillig'i quyuvlashib, tosh hosil bo'lishiga moyillik oshganda o'tni suyultiradigan dori-darmonlar, mineral suv ichish, ko'proq harakat qilish tavsiya qilinadi. Medikamentoz usulda davolash o't toshlarini maxsus dori preparatlar yordamida eritib tushirishga asoslanadi. U o't qopida qum yoki mayda toshchalar bo'lganda qo'llaniladi. Ekstrokorporal zarbli-to'lqinli litotripsiya usulda esa o't qopidagi 3 sm gacha bo'lgan xolesterinli toshlar ultratovush to'lqini yordamida og'riqsiz maydalab tushiriladi. Bu usul kalsiydan hosil bo'lgan toshlarda yordam bermaydi. Amaliyot ultratovush uskunasida nazorat qilinadi. Lazer yordamida davolashda qorin sohasidagi kichik teshik orqali lazer nuri yuboriladi va toshlar maydalanadi. Amaliyot uzog'i bilan 20 daqiqa davom etadi. Kontaktli kimyoviy litoliz usuli yordamida har xil tarkibli va turdagi katta-kichik toshlarni eritish mumkin. Bunda UTT nazorati ostida bemorning terisi orqali o't pufagiga ingichka naycha kiritiladi va toshlarni eritadigan maxsus dori yuboriladi. Bu usul 90 foiz holatda yaxshi samara beradi. Laparoskopiya usuli kam aziyatli usul bo'lib, bugun o't toshi kasalligini davolashning eng qulay usuli sanaladi. [2] Endoskopik



jarrohlik usuli esa qancha erta bosqichda bajarilsa, natija shuncha yaxshi bo'ladi. Shuni borki, toshlarni eritish borasidagi urinishlar doim ham kutilgan natijani bermaydi. Ochiq jarrohlik usuli (xoletsistektomiya). Bu an'anaviy jarrohlik usuli bo'lib, qorin sohasini 10-15 sm kesish yordamida o't pufagini olib tashlashga asoslanadi. Bu usulda infeksiyalardan zararlanish xavfi ko'proq bo'lgani uchun faqat o't pufagi kuchli yallig'langanda yoki unda katta o'lchamli toshlar bo'lganda, kuchli og'riqlar bezovta qilganda amalga oshiriladi. Operatsiyadan keyin bemor o'zini tiklashi uchun 1-2 oy vaqt kerak bo'ladi.[1]

### **Xulosa:**

Ma'lumki, o'tida toshi bor bemorlarning aksariyati operatsiya qildirishdan qo'rqishadi. Albatta, bu tosh ortiqcha bezovta qilmasa, uni operatsiya qilish shart emas. Ayrim hollarda o'tdagi tosh inson umrining oxirigacha ham aziyat bermay turaveradi. Agar o'tda kichikroq toshchalar borligi aniqlansa, kishi tana vaznini kamaytirishga harakat qilsa, endokrin tizimi hamda yallig'lanish bilan bog'liq kasalliklarni o'z vaqtida davolatsa, bundan tashqari, parhez saqlab, me'yorida jismoniy mashqlar qilib yursa, o'tdagi tosh bezovta qilmaydi. Tosh kattaroq bo'lganda, o'ng qovurg'a ostida og'riq sezilsa, shifokor bilan maslahatlashgan holda og'riq qoldiruvchi dorilar ichgan ma'qul. Agar 4-6 soat ichida ham og'riq to'xtamas, jarrohga murojaat qilish darkor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.S.Temirova Yuqumli kasalliklar Toshkent-2008[1]
- 2.X.Saparov O'ta xavfli yuqumli kasalliklar Toshkent-2016[2]
- 3.M.Axmedova Yuqumli kasalliklar Toshkent-2008[3]
- 4.Mirtazayev O.M., Xodjaev N .I., Norov G.X. // O 'zbekiston tibbiyot jurnali. 2000, № 3: 14-15.[4]
- 5.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) [5]

